

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farxod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farxod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Abdusalilov Abdullo,**

О‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy ish kafedrasida dotsenti,  
sotsiologiya fanlari doktori (DSc),  
e-mail: abdulalilovabdullo81@gmail.com,

### NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099394>

#### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda nogironlik fenomenini tadqiq etish jarayonlari borasida ijtimoiy fanlar vakillari o‘rtasida ko‘plab ilmiy diskurslar olib borilmoqda. Jahonda faoliyat yurituvchi yirik ilmiy tadqiqot markazlari va institutlar tomonidan nogironlik masalalarini o‘rganishga doir muayyan metodologiya, shuningdek, texnikalar ishlab chiqilib, milliy va global darajada jamiyat hayotiga tatbiq qilinmoqda. Aynan shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi nogironlik fenomenini tadqiq etishga doir turli yondashuvlarni ochib berishdan iborat. Yuqorida qayd etilgan maqsaddan kelib chiqib, mazkur maqolada: Vashington guruhi, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti, Belfast universiteti kabi ilmiy markazlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan indikatorlar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga Yangi O‘zbekistonda nogironligi bor shaxslarning turmush sifatini aniqlashga qaratilgan milliy indikatorlarni ishlab chiqish jarayonlari yoritilgan. Muallif o‘tkazilgan ekspert baholash usuli orqali nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlash indikatorlar loyihasini mazkur maqolada taklif qilgan.

**Kalit so‘zlar:** nogironlik, nogironligi bor shaxs, turmush sifati, indikator, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari, Vashington Guruhi, so‘rovnoma, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti, Jahon Banki.

**Абдухалилов Абдулла,**

доцент кафедры «Социальная работа»  
Национального университета Узбекистана,  
доктор социологических наук (DSc),  
e-mail: abdulalilovabdullo81@gmail.com,

### МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФЕНОМЕНА ИНВАЛИДНОСТИ

#### АННОТАЦИЯ

На сегодняшний день представителями социальных наук видутся различные дискурсы направленные на разработку методологии исследования феномена инвалидности. Разработанная методология и техника исследований феномена инвалидности применяется на глобальных и национальных уровнях в жизни общества. Исходя из этого, целью данной статьи является рассмотрение различных подходов исследований феномена инвалидности. Исходя из

указанной выше цели, в данной статье были рассмотрены методологии, а также индикаторы измерения качества жизни лиц с инвалидностью такими организациями как: Вашингтонская группа, Всемирная Организация Здравоохранения, Белфестский университет и т.д. Также рассмотрены процессы разработки индикаторов измерения качества жизни лиц с инвалидностью в Новом Узбекистане. В данной статье на основе использования метода экспертных оценок автором был предложен проект индикаторов измерения качества жизни лиц с инвалидностью в Узбекистане.

**Ключевые слова:** инвалидность, лицо с инвалидностью, качество жизни, индикатор, Конвенция Организация Объединённых Наций «О правах инвалидов», Цели Устойчивого Развития, Вашингтонская Группа, опросник, Всемирная Организация Здравоохранения, Всемирный Банк.

**Abdulkhalilov Abdullo,**  
Associate Professor of the Department of Social Work  
of the National University of Uzbekistan, doctor of Sociology (DSc),  
e-mail: abduxalilovabdullo81@gmail.com,

## METHODOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCHING THE PHENOMENON OF DISABILITY

### ABSTRACT

Various discourses aimed at developing the methodology for studying the phenomenon of disability are currently observed among representatives of the social sciences. The developed methodology and techniques for researching the phenomenon of disability are applied at both global and national levels in societal life. Given this, the purpose of this article is to examine various approaches to researching the phenomenon of disability. Based on the aforementioned purpose, the article reviews methodologies and indicators for measuring the quality of life of persons with disabilities used by organizations such as the Washington Group, World Health Organization, Belfast University, and others. It also examines the processes of developing indicators for measuring the quality of life of persons with disabilities in New Uzbekistan. In this article, using the method of expert assessments, the author proposes a project of indicators for measuring the quality of life of persons with disabilities in Uzbekistan.

**Keywords:** disability, person with disability, quality of life, indicator, United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities, Sustainable Development Goals, Washington Group, questionnaire, World Health Organization, World Bank.

### KIRISH

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda nogironligi bor shaxslarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni turmush sifatini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bunga mazkur sohada Yangi O‘zbekistonda 40 dan ortiq qonunlarni qabul qilinganligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasini ratifikatsiya qilinganligi yaqqol misol bo‘la oladi. O‘z navbatida olib borilayotgan islohotlarning inklyuzivligini va samaradorligini oshirish jarayonlari kompleks ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Aynan shundan kelib chiqib, nogironlik masalalariga doir tadqiqotlarni olib borish metodologiyasini ishlab chiqish va bu borada xalqaro tajribani o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

### METODOLOGIYA

So‘nggi yillarda O‘zbekiston olimlari tomonidan nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirish borasida turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda. Ulardan M.Ganiyeva [1], N.Latipova [2], L.Mo‘minova [3], D.Nurkeldiyeva [4], V.Alimova [5], V.Alekseeva[6], M.Abduvaliyeva [7], F.Komilov [8], Z.Uzakova [9], D.Yusupov [10], Ya.Checherina [11], A.Abduxalilovlarni[12] ko‘rish mumkin. Ushbu olimlar tadqiqotlarida nogironligi bor shaxslarni huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir turli xil masalalar yoritilgan bo‘lsa-da, ularda nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlash indikatorlariga deyarli e‘tibor qaratilmagan. Nogironlik fenomenini tadqiq etilishi

Vashington guruhi, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Jahon Banki, Belfast universiteti kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan. Aynan shundan kelib chiqib, mazkur maqolada jahonning turli tadqiqot markazlari tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar ko'rib chiqilgan.

Nogironlikning xalqaro tasnifi qabul qilingandan so'ng, Birlashgan Millatlarning Statistik Qo'mitasi tomonidan "Nogironlik masalalarini statistikasini olib boruvchi Vashington guruhi" tashkil etildi. Mazkur guruhga nogironlik statistikasi bo'yicha faoliyat olib boruvchi turli mamlakatlarning milliy statistik qo'mitalari kirdi. Bu guruhning asosiy maqsadi, Xalqaro Hamkorlikni kuchaytirish orqali nogironligi bor shaxslarni ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash va bu borada mamlakatlar erishgan yutuqlarni qiyoslash hisoblanadi. Vashington guruhi tomonidan yaratilgan metodika aholini ro'yxatga olish jarayonlarida foydalanilishi mumkin. Guruh vakillari tomonidan yaratilgan instrumentlarning maqsadi nogironligi bor shaxslarni hayot faoliyatini qiyoslashdir. Shuni ham ta'kidlash joizki, Vashington guruhi tomonidan ishlab chiqilgan instrumentlar nogironlik fenomeni ko'p qirrali va murakkab tushuncha ekanligidan kelib chiqadi. Ishlab chiqilgan instrumentlardan eng mashhuri nogironligi bor shaxslarni funksional xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan savolnoma hisoblanadi [13].

Bu savolnoma aholini ro'yxatga olish jarayonida qisqa modul sifatida ishlab chiqilib, unda nogironligi bor shaxslarni funksional xususiyatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, nogironligi bor shaxslarning o'z faoliyatini olib borishdagi qiyinchiliklar atrof-muhit bilan bog'liqligini aniqlash ishlab chiqilgan qisqa savolnomaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Bu savolnomada shaxsning ko'rish qobiliyatining pastligi, eshitish qobiliyatining pastligi, harakatlanishdagi nuqsonlarning mavjudligi, eslab qolish va e'tibor qilishdagi qiyinchiliklar kabi funksional xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan savolnoma turli xil shakldagi nogironligi bor shaxslar duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlashga qaratilgan. Bugungi kunda Vashington guruhi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qisqa savolnoma Xalqaro Hamjamiyat tomonidan nogironligi bor shaxslarni hayot faoliyati haqidagi ma'lumot to'plash bo'yicha eng yaxshi amaliyotlardan biri sifatida tan olinadi.

### ASOSIY QISM

Vashington guruhi tomonidan ishlab chiqilgan qisqa savolnomalar quyidagilardan iboratdir:

1. Siz ko'zoynakdan foydalanishingizga qaramasdan, da muammolarga duch kelasizmi?
2. Eshitishni kuchaytirish moslamalaridan foydalanishingizga qaramasdan, siz eshitish jarayonida muammolarga duch kelasizmi?
3. Yurishda yoki zinalarga ko'tarilishda qiyinchiliklarga duch kelasizmi?
4. Siz eslab qolishda yoki diqqatingizni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelasizmi?
5. Siz yuvinish, kiyinish kabi muhim bo'lgan maishiy masalalarni yechish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelasizmi? 6

. Siz boshqa insonlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelasizmi? Har bir savol 4 ta variantga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- a) Yo'q hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmayman;
- b) Ha katta qiyinchiliklarga duch kelaman;
- c) Ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelaman;
- d) Menda ko'rish, eshitish, harakatlanish va e'tibor qaratish imkoniyati yo'q.

Bu guruhga jalb etilgan mutaxassislarning fikricha, nogironlik holati aynan yuqorida keltirilgan to'siqlar asosida aniqlanadi. Ushbu guruh tomonidan qisqa savolnoma ishlab chiqilganidan so'ng, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlashga qaratilgan kengaytirilgan savolnoma ham ishlab chiqildi. Shuni aytib o'tish joizki, Vashington guruhi tomonidan ishlab chiqilgan kengaytirilgan savolnoma qisqa savolnomada ifodasini topmagan nogironlik borasidagi ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi.

Kengaytirilgan savolnomada qo'shimcha tarzda tashvish, depressiya, tananing yuqori qismini funksiyalarining bajarilishi shuningdek, unda og'riqlar va charchoq borasidagi savollar qo'yilib, insonlarda uchraydigan turli xil to'siqlarga doir savollar ham o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga kengaytirilgan savolnomada ko'rish, eshitish, mobillik, shuningdek tananing funksional xususiyatlari va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlik, shaxsiy yordamchi va yordam beruvchi vositalar haqida ham

savollar qo'yilgan. Kengaytirilgan savolnoma 35 ta savoldan iborat bo'lib, unda demografik holat, uy xo'jaligi, salomatlikning holati aniqlanadi. Bu savolnomaga 18 yoshga to'lgan nogironligi bor shaxslar javob berishlari mumkin. Agarda tadqiqotda respondent muayyan sabablarga ko'ra o'zi ishtirok eta olmasa, unda unga yordam beruvchi shaxs ishtirok etishi mumkin [14].

Kengaytirilgan savolnomani qo'llash jarayonida nogironligi bor shaxslarni ehtiyojlari va turmush sifatining holati. Nogironligi bor bolalarni xususiyatlarini inobatga olgan holda UNICEF va Vashington guruhi tomonidan bolalar uchun savolnoma ishlab chiqilgan. U ham kattalar uchun savolnomalar kabi nogironligi bor bolalarni turmush sifatini aniqlashga qaratilgan.

Nogironligi bor bolalar uchun ishlab chiqilgan savolnoma 2 ta asosiy qismdan iborat bo'lib, birinchidan, 2-4 yoshdagi bolalarga, ikkinchi qismi esa, 5-17 yoshli bolalarga qaratilgan. 2-4 yoshlik bolalar uchun ishlab chiqilgan savolnoma o'z ichiga motorika, muloqot, o'yin va xulqni nazorat qiluvchi vositalarni aniqlash kabi savollarni qamrab olgan. 5-17 yoshli bolalar uchun tuzilgan savolnoma esa, ko'rish, eshitish, mobillik, o'z o'ziga xizmat qila olish, muloqot, eslab qolish, diqqatni jamlash borasidagi savollar mavjud. Agar bola muayyan sabablarga ko'ra savolnomaga javob bera olmasa unda uni parvarish qiluvchi asosiy shaxsga savollar bilan murojaat qilinadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Vashington guruhi tomonidan inklyuziv ta'limga jalb etilganlikni aniqlash, to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish, nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlash borasidagi qiyinchiliklarni aniqlashga qaratilgan savolnomalar ham ishlab chiqilmoqda [15].

Fikrimizcha, bu guruhi tomonidan nogironligi bor shaxslar turli sohalarda duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlashga qaratilgan savolnomalarni ishlab chiqilishi istiqbolda nogironlik masalalariga doir tadqiqotlarni kuchayishiga va nogironlik fenomenini tushunishga qaratilgan yangi konsepsiyalarni paydo bo'lishiga olib keladi. Yana bir bugungi kunda keng tarqalgan savolnomalardan biri Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda nogironligi bor shaxslarning turmush sifati bo'yicha to'liq ma'lumot olish ko'zda tutilgan. Ushbu savolnoma asosiy e'tibor nogironligi bor va nogironligi bo'lmagan shaxslar qanday qiyinchiliklarga duch kelishi, ularning hayotida qanday to'siqlar mavjudligini aniqlash uchun mo'ljallangan. Shuni ham aytib o'tish joizki, mazkur savolnomani qo'llagan holda o'tkazilgan monitoring asosida Barqaror Rivojlanish Maqsadlari muayyan mamlakatda qanday tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. O'z navbatida savolnoma quyidagi modullarni o'z ichiga qamrab oladi:

I) Atrof-muhit omillari.

1. Siz odatda boradigan jamoat joylari qulaymi?
2. Ushbu jamoat joylari sizga jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishingizga imkon beradimi?
3. Turar joyingizga yaqin bo'lgan do'konlar, pochta bo'limlari, banklar siz uchun qulaymi?
4. Siz foydalanayotgan yoki foydalanishni xohlagan transport vositalari qulaymi [16]?
5. Siz istiqomat qilayotgan turar joy siz uchun qulaymi yoki siz u yerda muayyan qiyinchiliklarga duch kelasizmi?
6. Agar sizga yordam kerak bo'lsa, hamkoringiz yoki o'z oila a'zolaringizdan uni olish qanchalik qiyin?
7. Agar sizga yordam kerak bo'lsa, do'stlaringizga yoki hamkasblaringizga murojaat qilish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?
8. Agar sizga yordam kerak bo'lsa, qo'shnilaringizdan yordam olish siz uchun qiyinchilik tug'diradimi?
9. O'z kundalik hayotingizda sizda tanlov imkoniyatlari bormi? Masalan, nima yeyish, qayerga borish, nima qilish va hokazo?
10. Sizni boshqa insonlar hurmat qilayotganini sezasizmi? Ular sizni tinglashadimi?

II) Funktsional vazifalarni aniqlovchi savollarga quyidagilar kiradi.

1. Siz uchun 1 kilometr piyoda yurish qiyinchilik tug'diradimi? Siz istaydigan joyga borish sizga qiyinchilik tug'diradimi?

2. Siz uchun yuvinish, kiyinish kabi maishiy ishlarni bajarish katta qiyinchiliklar tugʻdiradimi?

3. Siz uchun hojatxonadan foydalanish qiyinchilik tugʻdiradimi?

4. Oʻz salomatligingizga eʼtibor qaratish siz uchun katta qiyinchilik tugʻdiradimi? Masalan, mashqlarni bajarish, yaxshi ovqatlanish, kerakli dorilarni qabul qilish, muayyan ishni bajarish jarayonida quvvatingiz yetishmasligini sezasizmi?

5. Siz qilishingiz kerak boʻlgan ishlarni bajarish sizga katta qiyinchiliklar tugʻdiradimi? Siz kundalik hayotingizda bajarishingiz kerak boʻlgan ishlarni eslab qolish jarayoni sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

6. Uy ishlarini bajarish siz uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiradimi? Jamiyat hayotida ishtirok etish siz uchun katta qiyinchiliklarni tugʻdiradimi? (Diniy va boshqa marosimlar kiradi)

7. Siz uchun shaxsiy yoki jamoat transportidan foydalanish katta qiyinchiliklar tugʻdiradimi?

8. Ishlaydigan joyingizda oʻz vazifangizni bajarish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

III. Imkoniyatlar va salomatlik holatini aniqlovchi savollarga quyidagilar kiradi. Interyer savollar beradi.

1. Koʻzoynaksiz masofadan narsalarni koʻrish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

2. Eshitish moslamasiz insonlar bilan muloqot qilish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

3. Piyoda yurish, zinalardan koʻtarilish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi? Oʻz diqqatingizni jamlash va eslab qolish siz uchun qiyinmi? Yuvinish, kiyinish kabi ishlarni bajarish siz uchun qiyinmi?

4. Sogʻligingizdagi muammolar tufayli siz uchun uyquga ketish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

5. Sogʻligingizdagi muammolar tufayli uydagi ishlarni bajarish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi?

6. Sogʻligingizdagi muammolar tufayli jamiyat hayotida ishtirok etish siz uchun katta qiyinchilik tugʻdiradimi? Masalan festivallar, diniy marosimlar va hokazo.

7. Siz koʻp hollarda xafa boʻlasizmi?

8. Sogʻligingiz nuqtai nazaridan boshqa insonlar bilan istiqomat qilish sizga qiyinchilik tugʻdiradimi? (Doʻstlaringiz va oila aʼzolaringiz davrasida boʻlganingizda tanangizdagi ogʻriqlar sizni bezovta qiladimi?)

9. Sizda koʻzi ojizlik, eshitish qobiliyatining pastligi, gipertoniya, yurak xastaligi, qandli diabet, artrit yoki artroz, surunkali bronxit, astma, nafas yoʻllarining allergik kasalliklari, orqa mushaklarning ogʻrishi, besh daqiqadan ortiq choʻziluvchi qulogʻingizda turli xil tovushlarning paydo boʻlishi kabi kasalliklar mavjudmi?

IV. Personal yordam va yordamchi vositalar. interyer quyidagi savollarni beradi.

1. Sizda uyda va uyingizdan tashqarida yordam beradigan insonlar bormi?

2. Uyda va uyingizdan tashqarida sizga qoʻshimcha yordam kerak deb hisoblaysizmi?

3. Fikringizcha, sizga yordam berish uchun kimdir kerakmi?

4. Hozirgi vaqtda turli xil yordam beruvchi vositalardan foydalanasizmi [17]?

Fikrimizcha, Jahon Sogʻliqni Saqlash va Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan savolnomada koʻrsatilgan savollar muayyan mamlakatdagi nogironligi bor shaxslarning holati haqida koʻp maʼlumot olish imkonini beradi. Vashington guruhi shuningdek, Jahon Sogʻliqni Saqlash va Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan nogironligi bor shaxslarni turmush sifati va holatini aniqlashga qaratilgan instrumentlar nafaqat muayyan mamlakatdagi nogironligi bor shaxslarning holatini, balki bu boradagi mamlakatlarni siyosatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Nogironligi bor shaxslarni turmush sifati aniqlashga qaratilgan indikatorlar va savolnomalar nafaqat xalqaro institutlar tomonidan ishlab chiqilgan, balki nogironligi bor shaxslarni turmush sifati aniqlashga doir indikatorlarni ishlab chiqishga qaratilgan milliy tadqiqotlar ham olib borilganligini koʻrish mumkin. Bunga Belfast Shimoliy Irlandiyada joylashgan Qirollik Universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yaqqol misol boʻla oladi. Bu tadqiqot natijalari hisobot shaklida tayyorlangan boʻlib, unda asosan quyidagi maqsadlar koʻrsatilgan:

1. Nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalar turmush sifati aniqlashga qaratilgan adabiyotlar tahlilini amalga oshirish.

2. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini o'lchashga qaratilgan asosiy jihatlarini aniqlash va bu borada maqbul bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish.

3. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va yangi ma'lumotlarni aniqlash.

4. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Beshinchidan, tavsiya etilgan chora-tadbirlarni qayta tekshirish [18]. Mazkur tadqiqotda nogironlik tushunchasiga BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida" gi Konvensiyasiga muvofiq tarzda ta'rif beriladi. Turmush sifatiga esa "muayyan jamiyating ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zining holatiga baho berish" deb tushuniladi [19].

Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur tadqiqotda turmush sifati tushunchasiga subyektiv yondashuv asosida ta'rif berilgan. Hisobotda ta'kidlanishicha nogironligi bor shaxslarning turmush sifatiga doir tadqiqotlar nisbatan yangi bo'lib, hozirgi kungacha nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini o'lchash ko'rsatkichlari puxta ishlab chiqilmagan. Hisobot mualliflarning fikriga ko'ra, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini o'lchash jarayonida biz bir qator murakkab savollarga duch kelishimiz mumkin: Yaxshi hayot bu nima? Yaxshi hayot tushunchasi borasida insonlarning qarashlari o'xshashmi? Hayotning qaysi sohalar boshqa sohalaridan ko'ra muhimroq hisoblanadi? Turmush sifatini o'lchashga qaratilgan universal indikatorlar mavjudmi? Aholini turmush sifatini belgilash jarayonida obyektiv yoki subyektiv jihatlar muhimmi? Ijtimoiy-madaniy omillar turmush sifati kategoriyasini tushunilishida qanday ta'sir ko'rsatadi? [20]. O'z navbatida, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini o'lchash murakkab jarayon bo'lib, unda turli xil paradokslarga duch kelish mumkin.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni samaradorligini ta'minlash jarayonlari bevosita ilmiy asoslangan usullar yordamida baholanishi bilan bog'liqdir. Zero, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan takliflarga nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni tizimli isloh qilinishiga sabab bo'ladi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida ekspert baholash usulini qo'llagan holda nogironligi bor shaxslarning turmush sifatini o'lchashga doir milliy indikatorlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

Ekspert baholash usulini qo'llash asosida o'tkazilgan tadqiqotda jami 10 ta ekspert ishtirok etdi. Ulardan 5 ta akademik doiraga mansub bo'lgan ekspertlar, 5 ta nodavlat notijorat tashkilot rahbarlari, ekspertlarning 4 tasi nogironligi bor shaxslardan iborat edi. O'tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni berdi:

Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini o'lchash jarayonida milliy indikatorlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. O'z navbatida, mazkur indikatorlar: Nogironligi bor shaxslarni jamiyatga integratsiyalashuv holati, to'siqsiz muhitni ta'minlanganligi, o'z salohiyatini oshirish imkoniyatlari, emotsional farovonlikni ta'minlanganligi, jismoniy farovonlikni ta'minlanganligi, shuningdek moddiy farovonlikni ta'minlanganligidan iborat bo'lishi mumkin.

Aytish joizki, nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirishga qaratilgan milliy indikatorlarni joriy etilishi murojaat qilingan ekspertlarning fikricha nogironligi bor shaxslar hayotini farovonligini oshishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Yuqorida qayd etilganidek, mazkur indikatorlar borasidagi tadqiqotlar to'liq aprobatsiyadan o'tgan tadqiqotlar deb aytish mushkuldir. Bu indikatorlarni tatbiq etilishi olimlar tomonidan miqdoriy va sifat tadqiqotlarni olib borishlarini taqozo qiladi.

Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlashga qaratilgan ko'rsatkichlarning tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Bugungi kunda nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlash borasida turli indikatorlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni qaysi biridan foydalanish mumkinligi aniq emas. Chunki ularni muayyan mamlakatlarda joriy etish va qo'llash borasida jahonda tadqiqotlar kamligi ko'zga tashlanadi.

2. Nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini aniqlash jarayonida integrativ indikatorlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nogironligi bor shaxslarning turmush sifati obyektiv holatlar bilan birga subyektiv holatlar bilan ham bog'liqdir.

3. Biz olib borgan tadqiqotlar jarayonida nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini ta'minlash jarayonida quyidagi ustuvor yo'nalishlar aniqlandi:

- nogironligi bor shaxslarni jamiyatga integratsiyasi;
- to'siqsiz muhitni ta'minlanishi;
- shaxsni rivojlanish imkoniyati;
- emotsional farovonligini ta'minlanganligi;
- jismoniy farovonligini ta'minlanganligi;
- moddiy farovonligini ta'minlanganligi.

Ushbu ustuvor yo'nalishlar shuni ko'rsatmoqdaki jamiyatda to'siqsiz muhitni ta'minlash dasturlari ishlab chiqilib hayotga samarali joriy etilsa, nogironligi bor shaxslar muayyan darajada emotsional, jismoniy, moddiy farovonlikka erishishlari mumkindir.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ганиева М.Х. Социальной работа с разными группами населения // Общественное мнение. Права человека. – Тошкент: Ижтимоий фикр, 2015. - №4. – 116 с.
2. Латипова Н.М. Абдухалилов А.А. Алексеева В.С. “Социальные барьеры в процессе формирования инклюзивного общества”//Историческая и социально-образовательная мысль, 2022. – 97 с.
3. Муминова Л.Р. Социальная защита детей в Узбекистане: наука и практика. // Сборник статей. – Тошкент: Specter Media Group, 2016. – 90 с.
4. Нуркелдиева Д.А. Ўзбекистонда алохида ёрдамга мухтож илк ёшдаги болаларнинг коррекцион-педагогик абилизацияси ва комплекс кўллаб-қувватлаш / “Укрепление социальной работы в обеспечении благополучия детей и семей в Узбекистане” мавзусидаги халқаро форум материаллари. – Тошкент., 2019. – 71 б.
5. Алимова В.С. Целенаправленная реабилитация детей с церебральным параличом в условиях Республиканского Центра социальной адаптации детей. Медицинские науки. 3 с. <https://cyberleninka.ru/article/n/tselenapravlyennaya-reabilitatsiya-detey-s-tserebralnym-paralichom-v-usloviyah-respublikanskogo-tsentra-sotsialnoy-adaptatsii-detey/viewer> Murojaat sanasi: 11.01.2024.
6. Алексеева В.С. Социальная защита лиц с инвалидностью как средство обеспечения мобильности уязвимых групп населения// О'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022. [1/6] – 44 с.
7. Абдувалиева М.А. Механизмы совершенствования социальной адаптации детей с инвалидностью. / – Монография. – Ташкент: «Zebo prints», 2023 – 56 с.
8. Камиллов Ф.О. “Ногиронлиги бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни институционал такомиллаштириш”//Ўзбекистон Миллий университети [Матн]: монография. –Тошкент: “Бола ва замон” нашриёти, 2023. – 84 б.
9. Узакова З.Ф. Алохида эҳтиёжли ёшларнинг ижтимоийлашуви, меҳнатга интеграциялашувининг ўзига хос хусусиятлари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2019. – 40 б.
10. Юсупов Д. (2018) Невидимые люди // Газета.uz 29.11.2018 (на узбекском) <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/29/statistics/> Murojaat sanasi: 22.10.2023
11. Чичерина Я.Е. Муминова Л.Р. “Методы и содержание коррекционно – развивающей работы по развитию интеллектуальных способностей у воспитанников детских домов «Мехрибонлик», 2008. – 4 с.
12. Abdukhalilov A.A. Yusupov D. Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan: A pilot qualitative study of disabled people's lived experiences. Journal of International Development / Volume 34, Issue 5. Accepted: 28 June 2022. DOI: 10.1002/jid.3693

13. [www.washingtongroupdisability.com](http://www.washingtongroupdisability.com)
14. [Sdps.un.org](http://Sdps.un.org).
15. [Sdps.un.org](http://Sdps.un.org).
16. World Health Organization, Model disability, survey index [sdps.www.who.int-disabilities-data model disability survey-4 2017-year](http://sdps.www.who.int-disabilities-data/model-disability-survey-4-2017-year)
17. World Health Organization, Model disability, survey index [sdps.www.who.int-disabilities-data model disability survey-4 2017-year](http://sdps.www.who.int-disabilities-data/model-disability-survey-4-2017-year)
18. David S., Norvan M. “Measuring the quality of life of people with disabilities in their families scoping study final report, 27-September, 2017. – 8 pp.
19. David S., Norvan M. “Measuring the quality of life of people with disabilities in their families scoping study final report, 27-September, 2017. – 8 pp.
20. David S., Norvan M. “Measuring the quality of life of people with disabilities in their families scoping study final report, 27-September, 2017. – 33 pp.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000